



XALQ OG'ZAKI IJODI.
"SHIROQ" AFSONASI.



Fan- O'zbek tili
O'qituvchi- Mamarajabova Iroda Fayzullayeyna



REJA:

- ▶ 1)Shiroq vatanparvar shaxs
- ▶ 2)Shiroq iwlatgan hiylasi
- ▶ 3)Xulosa



Qadim zamonlarda Eron shohi Doro Turon hududlariga hujum qilibdi. Bu yerda massaget, sak va so‘g‘d qabilalari yashar edi.
Qabila boshliqlari dushmanni engish to‘g‘risida maslahatga to‘planishibdi.





Shunda ularning huzuriga
oddiy
cho'pon shiroq kelibdi va
maqsadini aytibdi. u eron
shohining
lashkarlari ko'pligi, ularni
jangda yengib bo'lmasligini,
ulardan faqat hiyla bilan
qutulish mumkin debdi.



Shiroq xanjari bilan o‘z qulqlarini, burnini kesibdi va dushman tomonga yo‘l olibdi. – Shohim, men qulingiz Shiroq bo‘laman. Qabila yig‘ilishida sizga taslim bo‘lishni aytgan edim, qulq-burnimni kesib, shu ahvolga solishdi.



Ulardan o‘chimni olmoqchiman. Ularni qayerdaligini bilasanmi? – Ha,
albatta. – Bizni o‘sha yerga boshlab bora olasanmi? – Jonim bilan.
Sizlarni faqat podachilar biladigan so‘qmoqlar bilan olib boraman. Yetti
kunlik oziq-ovqat, suv g‘amlang.



Doro Shiroqning so‘zlariga
ishonibdi va uni o‘z
qo‘s Shiniga yo‘lboshlovchi
qilib tayinlabdi. Cho‘pon
yigit ularni sahroga boshlab
boribdi. Eron lashkarlari
yo‘lboshlovchining maslahati
bilan yetti kunga g‘amlagan
suv, oziq-ovqat,
yemxashaklari tugabdi.
Sakkizinchı kun ochlik,
to‘qqizinchı kuni tashnalik
bosqlanibdi. Shunda Doro
aldanganini tushunibdi.



Bizni qayerga olib kelding? Qani saklar? – so‘rabdi u Shiroqdan. –

Men yengdim. Doroning qo‘sishinini bir o‘zim yengdim! –
deb javob beradi cho‘pon. –

Sizlarni aldab sahroning qoq o‘rtasiga olib keldim. Shiroq qo‘li bilan kun chiqish va kun botish tomonini ko‘rsatib yana shunday

debdi: – Bu yog‘i ham yetti kunlik yo‘l, u yog‘i ham. Istagan tomonga boravering! Baribir barchangiz halok bo‘lasiz.



Ilojsiz qolgan dushman: – Agar sen sahro quduqlari va
chashmalarini bizga ko‘rsatsang gunohingdan kechib,
So‘g‘diyonada istagan qishloqlaringdan birini senga in’om qilar
edik, – debdi.






O‘z elimning dushmanlariga
yordam uchun cho‘zadigan
qo‘limni kesib tashlaganim
ma’qul, – deb javob beradi
Shiroq. Halokat yoqasida
qolgan eroniylar chiday
olmay, fidoyi cho‘ponni
azoblab o‘ldirdilar va o‘zlari
ham suvsizlikdan halok
bo‘ldilar.





Oddiy cho'pon Shiroqning o'z elini qullikdan qutqarib qolish uchun o'z
jonidan kechgani, ming turli azob-uqubatni bo'yniga olgani yuksak
vatanparvarlik timsoli edi.





LUG'AT

kulfat – несчастье, горе	qo'shin tortib kelish – наступать с войском
qabila – племя	maslahat – совет
halol (odam) – честный	maqsad – цель
o'tov – юрта	yo'lboshllovchi – путеводитель
sodiq – преданный	ochlik – голод
tashnalik – жажда	suvsizlik – безводье
hiyla – хитрость	qilich – сабля
lashkar – войско	xanjar – кинжал
sarkarda – полководец	taslim bo'lmоq – сдаваться
jarohat – рана	saqlab qolmoq – спасти
azob-uqubat – мучение, мука	halok bo'lmоq – погибнуть

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Sak qabilasining boshiga qanday kulfat tushdi?
2. Shiroq qanday hiyla ishlatganini aytib bering.
3. Shiroq o‘limi oldidan o‘zini qanday tutdi va nimalar dedi?
4. Siz Shiroqning o‘rnida bo‘lganiningizda nima qilgan bo‘lar edingiz?
5. Afsonadan chiqargan xulosangizni ayting.



Uyga vazifa.

Shiroq kabi vatanparvar qahramonlardan yana kimlarni bilasiz?

Ular haqida so‘zlab bering.





E'tiboringiz uchun rahmat!